FURQAT SHE'RIYATIDA TASHXIS SAN'ATI

Oybek Boyatov
ORCID: 0000-0002-7070-587X
oybekboyatov151@gmail.com
University of Business and Science

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat she'riyatida tashxis san'atining badiiy-estetik xususiyatlari, poetik vazifalari va obraz yaratishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Shoir lirikasida tabiat hodisalari, jonsiz predmetlar hamda mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlarning ko'chirilishi orqali yuzaga keladigan badiiy ifoda imkoniyatlari yoritiladi. Tashxis san'atining shoir ruhiy kechinmalari, ishqiy munosabatlar va tabiat tasvirini ifodalashdagi o'rni she'riy misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, mazkur san'atning Furqat she'riyatidagi obrazlilik, ta'sirchanlik va poetik mazmunni teranlashtirishga xizmat qiluvchi jihatlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Furqat, mumtoz o'zbek adabiyoti, tashxis san'ati, badiiy tasvir vositalari, poetik mahorat, jonlantirish, tabiat tasviri, lirik qahramon, obrazlilik, badiiy-estetik xususiyatlar

THE ART OF PERSONIFICATION IN FURQAT'S POETRY

Oybek Boyatov
ORCID: 0000-0002-7070-587X
oybekboyatov151@gmail.com
University of Business and Science

Abstract: This article examines the artistic and aesthetic features, poetic functions, and significance of tashxis in the poetry of Zokirjon Xolmuhammad ogli Furqat. It explores the poetic techniques through which natural phenomena, inanimate objects, and abstract concepts are endowed with human qualities. Drawing on poetic examples, the study reveals the role of personification in expressing the poet's emotional experiences, conveying themes of love, and creating vivid images of nature. Particular attention is paid to the contribution of this literary device to imagery, emotional expressiveness, and the depth of poetic meaning in Furqat's lyrical works. The article also examines tashxis as an important means of artistic expression in classical Uzbek poetry and identifies its role in enhancing the aesthetic impact of the poet's literary language.

(cc) BY

Keywords: Furqat, classical Uzbek literature, tashxis, personification, figures of speech, poetic craftsmanship, depiction of nature, lyrical persona, imagery, artistic and aesthetic features

Kirish. Badiiy tafakkurning eng qadimiy usullaridan biri jonsiz narsa va hodisalarni tirik mavjudot, ayniqsa, inson qiyofasida tasavvur qilishdir. Xalq ertak va afsonalarida shamol so‘zlaydi, daraxt yig‘laydi, tog‘ javob qaytaradi. Mumtoz she’riyatda bu tafakkur tarzi tashxis deb ataluvchi badiiy san’atga aylangan. Tashxis tabiat manzarasini lirik qahramonning ruhiy holati bilan bog‘lash, mavhum tushunchalarni ko‘z oldida gavdalantirish va she’rga dramatik harakat bag‘ishlash imkonini beradi.

Zokirjon Furqat she’riyatida tashxis g‘azal, muxammas, musaddas, masnaviy va “Hajnoma” kabi turli janrlarda faol qo‘llangan. Shoir gul va bulbuldan tortib falak, davron, ajal, ko‘z va ko‘ngilgacha, hatto me’moriy inshootlar va samoviy jismlargacha jon bag‘ishlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikda jonlantirishning mohiyati turlicha talqin qilinadi. J.Lapasov ta’kidlashicha, jonlantirishda “insonga xos qobiliyat va xususiyatlar hayvonlar, jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga mujassamlashtiriladi”. M.Qurbonova va M.Yo‘ldoshev esa matn tilshunosligi nuqtayi nazaridan “kishilarning harakatlari, his-tuyg‘ulari, so‘zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko‘chirilishi”ni jonlantirish deb ataydi. T.Boboyev bu san’atning badiiy imkoniyatini alohida ta’kidlab, u “tasvir obyektini bo‘rttirib, qabartirib, yorqin va ravshan qilib tasvirlashga imkon beradi”, - deb yozadi. T.Boboyev va Z.Boboyeva uni istioraning bir ko‘rinishi sifatida qarab, “odamlarga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish” deb ta’riflaydi. Ta’riflarning barchasida asosiy belgi umumiy: insonga xos xususiyat boshqa ob’ektga ko‘chiriladi. Farq ko‘chirilayotgan belgining doirasida ko‘rinadi. Ayrim mualliflar harakat va tuyg‘uni, boshqalari nutq va tafakkurni ham hisobga oladi.

Natija va ularning tahlillari. Mumtoz poetikada tashxis, ko‘pincha, istiorai makniya bilan bog‘liq holda qaraladi. O‘xshatilayotgan asos nomi tilga olinmaydi, uning belgisi esa jonsiz ob’ektga beriladi. Shuningdek, tashxis husni ta’lil, mubolag‘a va intoq san’atlari bilan tez-tez qo‘shilib keladi. Furqat asarlaridagi misollar asosida tashxisning uch darajasini ajratish mumkin. Birinchi darajada ob’ektga birgina insoniy sifat yoki harakat beriladi. Ikkinchi darajada ob’ekt butun bir voqea yoki sahna ishtirokchisiga aylanadi. Uchinchi darajada esa ob’ekt so‘zlaydi va lirik qahramon bilan muloqotga kirishadi. Bu darajalar quyidagi tahlilda izchil kuzatiladi.

Furqatning o‘zi ham she’rdagi majoziy, aynan voqelikka mos kelmaydigan ifodalarga ongli munosabatda bo‘lgan. Uning “Shoir ahvoli va she’r mubolag‘asi xususida” nomli masnaviysida Firdavsiy “Shohnoma”sidagi mashhur bayt keltiriladi:

(cc) BY

Zi summi sturon darin pahn dasht,
Zamin shash shudu osmon gasht hasht.

Shoir bu bayt haqida shunday mulohaza yuritadi:

Balog‘at bila ushbu so‘zlarni der,
Kachon osmon sakkizu, olti yer?!
O‘shal bayt bizlarga marg‘ub erur,
Latofatlar anda base ko‘p erur”.

Demak, Furqat uchun badiiy ifodaning qimmati uning so‘zma-so‘z haqiqatga mosligida emas, balki latofatida, ya’ni estetik ta’sirida. Masnaviyning davomida shoir ijodiy tamoyilini ham bayon etadi:

Yozarmiz base shod bo‘lsa ko‘ngul
Vayo g‘amga mu’tod bo‘lsa ko‘ngul.
Nahol o‘lsa anga muvofiq qilib,
Yana ramzu mazmuniga loyiq qilib.

She’r ko‘ngil holatiga muvofiq va “ramzu mazmuniga loyiq” bo‘lishi kerak. Tashxis aynan shu tamoyilni amalga oshirishning eng qulay vositasidir. Shoir o‘z kechinmasini tabiat va narsalarga ko‘chirib, ularni ko‘ngil holatiga hamohang qiladi.

Furqat she’riyatidagi jonlantirishlar maxsus tadqiqot obyekti ham bo‘lgan. Sh.Iskandarova va D.Qo‘ldasheva shoir g‘azallaridan qator misollarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: “Jonlantirishlar Furqat ijodi badiiy matnining ifodaviyligi, ta’sirchanligi va jozibadorligi ta’minlashga xizmat qiladi”. Mualliflar, shuningdek, “Furqat g‘azallarida inson tana a’zolarini jonlantirish orqali o‘ziga xos badiiy tasvir yaratishga erishilgan”ini qayd etadi. Yu.Ashurboyeva shoirning obrazlar tizimini tavsiflab: “U oftob, gul, shabnam, ko‘ngil, ishq, sahro kabi poetik obrazlar orqali inson qalbidagi sezgi va ruhiy holatlarni obrazli ko‘rinishda tasvirlaydi”, - deb yozadi. H.Jo‘rayev va M.Nuriddinova esa Furqat muxammaslaridagi falak va quyosh obrazlarini tahlil qilgan. Mavjud tadqiqotlarda, asosan, g‘azallardagi alohida baytlar tahlil qilingan. Furqatning muxammas, musaddas, masnaviy va “Hajnoma”dagi tashxislari, shuningdek, butun bir she’r davomida izchil rivojlanuvchi tashxis hodisasi esa alohida o‘rganishni talab qiladi.

Furqat lirikasida tashxisning eng ko‘p uchraydigan ob’ekti tabiatdir. Biroq shoir tabiatni jonlantirishda bir martalik ifoda bilan cheklanmay, ba’zan butun g‘azalni bitta ob’ekt atrofida qurib, uni o‘ziga xos “qahramon”ga aylantiradi. Bunga “gul” radifli g‘azal yorqin misol bo‘la oladi:

Yuzlaringdin sharm etib gulshanda, ey ruxsor gul,
Ko‘rinur har yil bahor ayyomida bir bor gul.
O‘lmog‘onmudi xijolatlar chekib o‘tgan bahor,
Boz bosh chekmish, uyatmasdin, ajab beor gul.
Shul edi bu jurmiga loyiq jazokim, bog‘bon,

(cc) BY

Bog‘lab aylanturdi chandon ko‘chau bozor gul.

Matla’da gulning yilda bir marta ochilishi tabiiy hodisa sifatida emas, balki “sharm”, ya’ni mahbuba yuzidan uyalish natijasi sifatida izohlanadi. Bu yerda husni ta’lil tashxis orqali amalga oshgan. Sababni ko‘rsatish uchun gulga insoniy tuyg‘u berilgan. Keyingi baytlarda gul obrazi rivojlanadi. U o‘zini mahbuba yo‘liga poyandoz qilib to‘shaydi, so‘ng “uyatmasdin” yana bosh ko‘taradi. O‘tgan bahorda xijolatdan o‘lmagan gulning yana ochilishi beorlik deb baholanadi. G‘azaldagi eng qiziq bayt esa gul savdosiga oid hayotiy kuzatishni badiiy talqin qiladi. Bog‘bonning gullarni bog‘lab, ko‘cha va bozorda sotib yurishi gulning “jurmi”ga yarasha “jazo” sifatida ko‘rsatiladi. O‘tmishda aybdorni el oldida sharmanda qilish uchun ko‘cha-ko‘y aylantirish jazosi ma’lum bo‘lgan. Shoir oddiy bozor manzarasini ana shu jazo bilan qiyoslab, gul obraziga kutilmagan ijtimoiy mazmun beradi. G‘azal oxirida gul, hatto, o‘z bargidan ozor topadigan nozik mavjudot sifatida tasvirlanadi: “Topqusidur, qarag‘il, o‘z bargidan ozor gul!” Shunday qilib, radif sifatida takrorlangan “gul” so‘zi har bir baytda yangi insoniy holat: uyat, sadoqat, beorlik, jazo va ozorga ega bo‘lib, g‘azal bo‘ylab izchil rivojlanuvchi tashxis hosil qiladi. Bu tashxisning ikkinchi, ya’ni sahna va voqea darajasidagi namunasidir.

Bulbulga murojaat tarzida yozilgan g‘azalda tashxis nido bilan birlashadi. Shoir bulbulga bevosita “sen” deb xitob qiladi va har bir baytni “bulbul” radifi bilan yakunlaydi:

Chamanda g‘unchadin bo‘yningg‘a toqmishsan jaras, bulbul,
Magarkim, o‘zga gulshan rihlatin qilding havas, bulbul.
Magar bo‘lding barahman, jomai azraq kiyibdursen,
Belingga bog‘la endi gulni toridin maras, bulbul.

Matla’da g‘unchaning bulbul bo‘yniga taqilgan qo‘ng‘iroqqa o‘xshatilishi uni safarga otlangan karvon ulovi qiyofasiga yaqinlashtiradi, shoir esa bundan kinoyali xulosa chiqaradi. Bulbul “o‘zga gulshan”ga ketishni havas qilmoqda. Ikkinchi baytda bulbulning tusi “jomai azraq” ko‘k libosga, gul tolasi esa belbog‘ga qiyoslanib, bulbul “barahman”ga aylanganlikda ayblanadi. Keyingi baytlarda u tun bo‘yi bedor bo‘lsa ham, sahar turuvchi obidlar kabi foyda ko‘rmagan mavjudot sifatida tanqid qilinadi:

Saharxezidek aslo qilmamishsan bahrae hosil,
Kecha bedordursan mahzi monandi akas, bulbul.

Bulbulning qafasga tushishi ham uning “isyoni” natijasi sifatida izohlanadi:

Bu isyon lazzatidurkim judo bo‘lg‘on gulistondin,
Asiri dom bo‘lding, ham giriftori qafas, bulbul.

G‘azal yakunida esa bulbulga Furqatdan saboq olish tavsiya etiladi:

Saboq olib o‘qug‘il “Matla’ul-anvor” Furqatdin,
Burung‘i fayzi yo‘q alhonlaringni ayla bas, bulbul.

(cc) BY

Amir Xusrav Dehlaviy dostonining nomi tilga olingan bu baytda tashxis kinoya va fahriya bilan qo‘shiladi. An’anada ishq va nag‘ma timsoli bo‘lgan bulbul shoirning shogirdi darajasiga tushiriladi. Natijada an’anaviy obraz kutilmagan, yangi rakursda ko‘rinadi.

Tashxis Furqat she’riyatida axloqiy fikrni ifodalashga ham xizmat qiladi. “Noz” radifli g‘azalda g‘uncha va gulning taqdiri odob mezoni bilan o‘lchanadi.

Gulshan ichra g‘uncha erdi bosh chekib bo‘ldi xazon,
Tutmayin posi adab gul aylagach ifshoyi noz.

G‘unchaning “bosh chekishi” va gulning odob chegarasini saqlamay nozini oshkor etishi ularning so‘lishiga sabab qilib ko‘rsatiladi. Bu - husni ta’lil va tashxisning birikuvi bo‘lib, bayt zamirida kibr va odobsizlikning oqibati haqidagi hikmat yotadi. “Bormasmiz” radifli g‘azalda esa daryo jonlantiriladi:

Agar lab tashna qolsak filmasal sahroyi olamda,
Malolat zohir etsa mavj uran daryog‘a bormasmiz.

To‘lqin urib turgan daryo ham “malolat” - norozilik izhor qilsa, lirik qahramon chanqoq qolsa-da, unga bormaydi. Daryoga insoniy kayfiyat berilishi orqali istig‘no - o‘zgaga muhtoj bo‘lmaslik va nafsni tiyish g‘oyasi ta’sirchan ifodalanadi.

Tabiat tashxisi Furqatning masnaviylarida ham uchraydi. “Nag‘ma va nag‘magar va aning asbobi va ul nag‘ma ta’siri xususida” masnaviysida mukammal kuyning ta’siri tabiat ishtirokida tasvirlanadi:

Nasim ohista to‘xtab go‘sh tutqay,
Chaman sayrini bilkulli unutqay.

Mayin shamol kuyni tinglash uchun to‘xtab qoladi va bog‘ sayrini butunlay unutadi. Masnaviyda kuy kamolga yetsa, “Uchar qushlar - tushar, bor ehtimoli”, ya’ni uchib ketayotgan qushlar ham tinglash uchun yerga qo‘nishi mumkinligi aytiladi. Shu masnaviyda kuyning ohangi daryoga qiyoslanib, to‘lqin daryoning tabassumi, uning shiddatli talotumi esa qattiq kulgusi deb ataladi:

O‘shal daryoni mavjidur tabassum
Qatiq kulgusi qilg‘onda talotum.

Bu misralarda tashxis musiqiy taassurotni ko‘rinadigan tasvirga aylantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Eshitiladigan narsa ko‘z oldida jonlanadi. Nasim obrazi lirikada tush motivi bilan ham bog‘lanadi:

Kecha tush ko‘rdimki, zulfin tebratur erdi nasim,
Qildi oshufta dimog‘im bu parishon xoblar.

Tushda mahbuba zulfini tebratayotgan nasim lirik qahramon xayolini ham parishon qiladi. “parishon” so‘zi bir vaqtning o‘zida zulfga ham, tushga ham tegishli bo‘lib, tashxisni iyhom bilan bog‘laydi.

Bahor ham ba’zan ijodkor shaxs qiyofasida tasvirlanadi.

Olib nusxa bahori xil’atingdin bo‘stonlarg‘a,

(cc) BY

Guli ahmar ruxindandur, g‘unchasi durji dahandandur.

Bahor mahbuba libosidan “nusxa ko‘chirib”, bo‘stonlarni bezaydi. Qizil gul uning yuzidan, g‘uncha esa og‘zidan namuna olgan. Shu g‘azaldagi “Ravodur ko‘zlaringdin parvarish topti desam nargis” misrasida ham nargisning mahbuba ko‘zlaridan tarbiya topgani aytiladi. Odatda mahbuba tabiatga o‘xshatiladi, bu baytlarda esa, aksincha, tabiat mahbubadan nusxa oladi. Tashbihi maqlub, ya’ni teskari o‘xshatish deb ataluvchi bu usul tashxis bilan birga kelib, mahbuba husnini go‘zallikning mutlaq o‘lchoviga aylantiradi, bahor esa mohir naqqosh yoki kotib singari ish ko‘radi. Furqat tabiatni jonlantirishda an’anaviy obrazlar tizimiga tayanadi, lekin ularga hayotiy tafsilot, kinoya va axloqiy mazmun qo‘shib, yangicha ohang beradi.

Xulosa. Tashxis Furqat she’riyatida g‘azal, muxammas, musaddas, masnaviy va “Hajnoma” kabi turli janrlarda faol qo‘llangan badiiy san’atdir. Shoirning “Shoir ahvoli va she’r mubolag‘asi xususida” masnaviysi uning majoziy ifodaga ongli munosabatini ko‘rsatadi: she’r ko‘ngil holatiga muvofiq va “ramzu mazmuniga loyiq” bo‘lishi lozim. Tabiat tashxisi ko‘pincha husni ta’lil bilan birikadi. “Gul” radifli g‘azalda tashxis butun she’r bo‘ylab rivojlanib, voqeaband tasvir hosil qiladi; bulbulga xitob qilingan g‘azalda u kinoya va fahriya bilan qo‘shiladi; “noz” va “bormasmiz” radifli g‘azallarda esa axloqiy mazmun ifodasiga xizmat qiladi. Bahor obrazida tashbihi maqlub, nasim tasvirida esa iyhom tashxisga hamroh bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995. - B. 38.

2. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. - Toshkent: Universitet, 2014. - B. 68.

3. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1996. - B. 212.

4. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san’atlar. - Toshkent, 2000.

5. Фирдавсий. Шоҳнома. -Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012.

6. Furqat Z. “Ishqingda kuyub, jono...”. - Ko‘rsatilgan nashr.

7. Ashurboyeva Yu.J. Furqat lirikasi: tuyg‘ularning tasviri va badiiy ifodasi // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. 2023.

8. Jo‘rayev H., Nuriddinova M. Furqat muxammaslarining badiiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. - 2022. - Vol. 2, Issue 10(2).

9. Iskandarova Sh.M., Qo‘ldasheva D.X. Furqat she’riyatida jonlantirishning ifodalanishi // FarDU axborotnomasi. 2023. 1-son.

(cc) BY